

TARAQQIYOT STRATEGIYASI YANGI O‘ZBEKISTONDA DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTIDAGI BARCHA ISLOHOTLAR ASOSI

N.B. Nigmanova

TDPU Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi kafedrası o‘qituvchisi, dotsent

Qozoqboyev Dilshodbek Erkinjon o‘g‘li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti Milliy
g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi talabasi

E-mail: qozoqboyevdilshod9@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan yo‘nalish, g‘oya va maqsadlar tahlil qilingan. Taraqqiyot strategiyasida shaxs, inson qadri yuqori o‘ringa qo‘yilganligi hamda “inson-jamiyat-davlat” boshqaruvini tashil etish bosh maqsadga aylanganligi misollar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, islohot, g‘oya, strategiya, ustuvor yo‘nalish, fuqarolik jamiyati, xalqchil davlat.

Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan bo‘lib, 7 ta asosiy yo‘nalish va 100 ta maqsadni o‘z ichiga oladi. 2022 yilda strategiyani amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasidagi tadbirlarga 55 trln so‘m va 11,7 mlrd dollar ajratiladi. Mazkur kontseptual hujjatda islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta‘minlash maqsadida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosiy g‘oya va bosh mezon qilib olindi. Shuningdek, inson huquqlarini ta‘minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha ta‘sirchan choralar ko‘rildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta‘lim xizmatlari, munosib yashash

sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi.

Yettita ustuvor yo'nalishlar quyidagilar etib belgilandi:

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
2. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
3. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
5. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
6. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
7. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida birinchi o'ringa shaxs, inson qadri yuqori o'ringa qo'yilib, "inson – jamiyat – davlat" degan yangi tamoyil asosida davlat va jamiyat boshqaruvini tashkil etadi. Bir so'z bilan aytganda, amaliy natija, inson manfaati, uning qadr-qimmatini bosh maqsadga aylangan. Tan olib aytish joizki, o'tgan 5 yilda ijtimoiy sohani rivojlantirish borasida qator tizimli islohotlar amalga oshirildi va ijobiy natijalarga erishildi, biroq shu bilan birga mazkur sohada samarali mexanizmlarni yaratishga to'sqinlik qilayotgan qator muammo va kamchiliklar ham yo'q emas. Kelgusi 5 yilda bu borada ijtimoiy yo'nalishdagi islohotlar alohida ahamiyatga ega, albatta. O'tgan yillar mobaynida ijtimoiy sohada amalga oshirilgan ishlarga nazar soladigan bo'lsak, ijtimoiy himoya va doimiy yordamga muhtoj shaxslar bilan ishlashning "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" kabi yangicha ishlash mexanizmi joriy etildi. Ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlanadigan aholi soni qariyb 1,5 barobar oshirildi. Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, maktabgacha ta'limdagi

qamrov darajasi 2017 yilda 27,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, hozirda 62 foizni tashkil qilmoqda, 2030 yilga borib esa mazkur qo'rsatkichni 80 foizga yetkazish maqsad qilinganligi ushbu sohada ham ulkan marralarni qo'yayotganligimizdan dalolat beradi. Bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 2016 yili 9 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021 yilga kelib 28 foizni tashkil qilmoqda, bu ko'rsatkichni 50 foizga yetkazish maqsad qilingan. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, keng ko'lamlis islohotlar jarayoni izchil davom etib, ular sermahsul bo'lishidan butun xalqimiz manfaatdor. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda barcha davlat va jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari ham kamarbasta bo'lishiga umid qilamiz. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi milliy rivojlanishimizning yangi bosqichini boshlab beradi hamda halqimizni umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirib turadigan yaxlit ma'naviy asos va mezoniga aylanishiga ishonchimiz komil.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1.2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi <https://www.lex.uz> hukumat sayti
- 2.Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi <https://president.uz> sayti
- 3.Taraqqiyot strategiyasi sari <https://strategy.uz> sayti